

INKLYUZIV MUHITDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH USULLARI

Bekbo'sinova Laylo Xayrulla qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15683813>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishning samarali usullari yoritilgan. Motivatsiya o'quv jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, ayniqsa inklyuziv sinflarda maxsus ehtiyojli va umumiy rivojlanishdagi bolalar birgalikda ta'lim oladigan holatlarda bu masala alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqolada o'quvchilarning ichki va tashqi motivatsiya omillarini shakllantirish, o'quvchilarga individual yondashuv, interfaol metodlardan foydalanish, rag'batlantirish va moslashtirilgan o'quv materiallari yaratish kabi samarali yondashuvlar ilmiy-nazariy asosda tahlil etiladi. Shuningdek, xalqaro va milliy tajriba misollarida inklyuziv ta'limda motivatsiya oshirishning amaliy jihatlari ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar.

Inklyuziv ta'lim, motivatsiya, o'quv jarayoni, individual yondashuv, interfaol metod, maxsus ehtiyojli bolalar, rag'batlantirish, moslashtirilgan o'quv materiallari.

Abstract.

This article discusses effective methods for increasing students' motivation in an inclusive educational environment. Motivation is one of the key components of the learning process and is particularly important in inclusive classrooms where children with special needs and typically developing students study together. The article analyzes, on a theoretical basis, the formation of students' intrinsic and extrinsic motivational factors, the application of individual approaches, the use of interactive methods, encouragement, and the creation of adapted learning materials. In addition, examples from international and national practices illustrate the practical aspects of enhancing motivation in inclusive education.

Keywords.

Inclusive education, motivation, learning process, individual approach, interactive method, children with special needs, encouragement, adapted learning materials.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim jahon ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida rivojlanmoqda. Inson huquqlari, tenglik va diskriminatsiyasizlik

tamoyillariga asoslangan inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning nogironligi bo'lgan va maxsus ehtiyojli bolalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, inklyuziv sinflarda o'quvchilarning o'z-o'zini anglash, o'z qobiliyatiga ishonch va ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini yuqori darajada saqlash eng muhim vazifalardan biridir. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning motivatsiyasi ularning o'zlashtirish darajasiga, ijtimoiylashuviga va kelgusidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu jarayonda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yetarlicha e'tibor qaratmaslik ayrim holatlarda kutilgan natijalarni cheklaydi. Shu sababli, zamonaviy pedagogikada o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri sifatida inklyuziv muhitda o'quvchi motivatsiyasini oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masaladir.

Asosiy qism

Motivatsiya bu shaxsning faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar yig'indisidir. O'quv faoliyatida motivatsiya o'quvchining bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi va maqsadga erishish istagi bilan bog'liq. Inklyuziv muhitda o'quvchilarning motivatsiyasi yanada murakkab xarakterga ega, chunki bu yerda turli imkoniyatlarga ega bolalar birgalikda ta'lim oladi.

Psixolog A. Maslou nazariyasiga ko'ra, o'quvchining motivatsiyasi ehtiyojlar piramidasiga bog'liq bo'lib, xavfsizlik, hurmat va o'zini amalga oshirish ehtiyojlari ta'minlanmasa, ta'limga bo'lgan qiziqish past bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi inklyuziv sinfdan har bir bolaning psixologik holatini, o'zini qulay his qilishini va ijtimoiy qabul qilinishini ta'minlashi zarur.

Individual yondashuv va differensiallash. Inklyuziv ta'limda asosiy prinsip individual yondashuvdir. O'qituvchi har bir o'quvchining bilim darajasi, qobiliyati, sog'ligi va psixologik holatini inobatga olib, mos metod va materiallardan foydalanishi zarur. Bu yondashuv bolaga qiyinchilik tug'dirmasdan, o'z imkoniyatiga mos natijaga erishish imkonini beradi, bu esa motivatsiyani oshiradi.

Interaktiv metodlardan foydalanish. Motivatsiyani oshirishda interaktiv metodlar rol o'yinlari, muammoli vaziyatlar, guruhli ishlar, debatlar va jamoaviy loyiha ishlari samarali vositadir. Bunday metodlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularni faol ishtirokchi qiladi va o'z fikrini erkin ifodalashga imkon yaratadi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhit. Motivatsiya to'g'ridan-to'g'ri sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitga bog'liq. Inklyuziv sinfda o'zaro hurmat, mehr-shafqat va yordam ko'rsatish muhitini shakllantirish o'quvchilarda o'zini qadrlash hissini kuchaytiradi. Sinfda kam kamsitish, zo'ravonlik va diskriminatsiyani bartaraf etish motivatsiya uchun muhim omil hisoblanadi. Motivatsiyani oshirishda ota-onalar bilan doimiy muloqot, maslahat va treninglar tashkil etish muhimdir. Ota-onalar bolaning o'qishidagi muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlasa, uning o'z-o'ziga ishonchi oshadi va darsga bo'lgan qiziqishi kuchayadi.

Rag'batlantirish motivatsiyani oshiruvchi asosiy vositalardan biridir. Bu nafaqat baho, balki o'quvchining harakatini maqtash, qiziqarli topshiriqlar, kichik sovrinlar va e'tirof shaklida bo'lishi mumkin. Bunda baholash jarayonida faqat yakuniy natija emas, balki o'quvchining harakatlari, intilishi va ijobiy o'zgarishlari inobatga olinadi. Finlyandiya, Yaponiya, Kanada kabi davlatlarda inklyuziv ta'limda motivatsiyani oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Finlyandiyada o'qituvchilarning yuqori malakasi, moslashtirilgan dasturlar va yengil baholash tizimi o'quvchilarda ortiqcha stressni kamaytirib, motivatsiyani oshiradi. Yaponiyada esa o'quvchilarda jamoaviylik va intizomiy motivatsiya rivojlantiriladi, har bir bola jamiyatning teng a'zosi sifatida tarbiyalanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu ilg'or tajribalarni milliy mentalitetga moslashtirish orqali motivatsiyani oshirish mumkin. Bunda pedagoglar tayyorgarligi, metodik qo'llanmalar va ota-onalar bilan muloqotning kuchaytirilishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Inklyuziv ta'limda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish — zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifasidir. Motivatsiya o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosi bo'lib, ta'lim sifati va ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi. Mazkur maqolada tahlil etilgan nazariy asoslar, xorijiy tajribalar va amaliy tavsiyalar inklyuziv muhitda o'quvchi motivatsiyasini samarali shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. O'zbekiston ta'lim amaliyotida interaktiv metodlar, differensial yondashuv, rag'batlantirish va psixologik qo'llab-quvvatlashni tizimli qo'llash orqali barcha o'quvchilarda ta'limga bo'lgan qiziqish va ishtirokni oshirish mumkin.

Kelgusida inklyuziv ta'lim sohasida o'qituvchilarni maxsus tayyorlash, ota-onalar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashgan holda joriy etish o'quvchi motivatsiyasini oshirishning eng muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, G. (2022). Inklyuziv ta'limda motivatsiyani oshirish metodlari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Xolmurodova, S. (2020). Maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiylashtirishda pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Fan.
3. UNESCO (2021). Inclusive Education: Guidelines for Policymakers. Paris: UNESCO Publishing.
4. Савельева, Т. (2019). Инклюзивное образование: теория и практика. Москва: Академический проект.
5. Yusupova, Z. (2021). "Inklyuziv muhitda motivatsiyani rivojlantirishning psixologik asoslari". Pedagogika va psixologiya jurnali, №4, 45–51.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1875-son Qarori. "Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida". (2023 yil).



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

